

PAPER

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANISH XUSUSIYATLARINI INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILISHI

Yuldasheva Umidaxon Maxmudovna^{1*}

¹ Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası

* Yuldasheva@gmail.com

Abstract

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari va ularning ingliz tilini o'rgatish jarayonida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Ta'lim sohasidagi zamonaviy islohotlar kontekstida, interaktiv metodlarning samaradorligi, yosh bolalarning til o'rganishidagi psixologik xususiyatlari hamda kognitiv imkoniyatlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada multisensorli va o'yinlarga asoslangan yondashuvlar, individual ta'lim strategiyalari, shuningdek madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirish muhimligi ta'kidlangan. Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'limda ingliz tilini samarali o'rgatishda kognitiv va interaktiv yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi.

Key words:

maktabgacha yosh, kognitiv rivojlanish, ingliz tilini o'rgatish, interaktiv metodlar, til o'rganish, multisensorli ta'lim, madaniyatlararo kompetentsiya, o'yin, ta'lim islohotlari.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasida ko'plab yangiliklar, islohotlar o'tkazilmoqda. Chet el, xususan, Finlandiya, Yaponiya, Germaniya kabi ta'lim sohasi rivojlangan mamlakatlar bilan ta'lim sifatini yaxshilash va o'quv faoliyatini isloh qilishda hamkorlikda ish olib borilmoqda. Bilamizki, dunyo tillari ichida ingliz tilining o'rne nihoyatda beqiyos.

Jahonda sodir bo'layotgan har bir voqea, hodisa, ilmiy izlanishlar eng avvalo ingliz tilida chop etiladi. Shu sababli yurtimizda ham ingliz tilini o'quvchilarga yoshlikdan, xususan maktabgacha ta'lim va maktab yoshidan boshlab o'rgatish belgilangan. Maktabgacha ta'lim va maktab yoshidagi bolalar juda o'yinqaroq, qiziquvchan va biroz tez zerikib qolishlari sababli, bu yoshdagi bolalarga ta'lim sohasida, xususan ingliz tilini o'qitishda juda ko'plab interaktiv metodlar (o'yinlar) mavjud.

Ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchi qiyinchiliklarni oson yengib, bu tilni ortiqcha stresslarsiz, sodda va oson o'rganishida interfaol o'yinlar, metodlarning o'rne beqiyosdir. Malakali pedagog buni bilishi va ta'lim jarayonida bunday metodlardan foydalanishi kerak. Bundan tashqari, interaktiv metodlar bolalarda fanga qiziqish, o'z ustida ishlash, izlanish va dars jarayonida faol

qatnashish, o'qituvchida esa har bir bolani shaxsiy rivojlantirish olish va sinfni to'g'ri boshqara olish kabi ko'plab masalalarda yordam beradi. Ma'lumki, interaktiv metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud. Ulardan eng ko'p foydalaniladiganlari "Aqliy hujum", "Blitz-savol", "Muammoli vaziyat", "Warm up", "Ice break", "TTT", "BTB", "Klaster" va "Moychechak guli" kabilardir.

Bulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz: "Ice break" metodi o'z ichiga ko'plab qiziqarli o'yinlarni oladi. Bu metod asosan o'quvchilar diqqatini jalb qilish, zerikkan o'quvchilarni uyg'otish, shuningdek, bir-birini tanimagan guruhlarda o'zaro muloqotni yaxshilash uchun yordam beradi. Kichik yoki katta sinflarda o'yin turiga qarab dars boshida yoki o'rtasida qo'llash mumkin. Dars boshida "name to name" usulidan foydalanish mumkin.

Bunda o'quvchilar o'z ismi va bitta yoqtirgan narsasi nomini aytadi, qolgan o'quvchilar o'sha ismga qo'shib o'z ismi va ular ham yoqtiragan biror bir narsaning nomini aytib ketaverishadi, oxirgi o'quvchiga hammaning ismi va narsaning nomini aytishi bilan o'yin yakunlanadi. Bu o'yin "zanjir o'yini" deb ham nomlanadi. O'quvchilar zerikkanini inobatga olgan holda ularga harakatli o'yinlar bilan dars o'tish tavsiya qilinadi. Misol uchun, o'qituvchi

ingliz tilida o'quvchilardan o'rnidan turishini, o'tirishini, o'nga, chapga burilishini va boshqa harakatlarni qilishlarini so'raydi. Bu jarayonda barcha o'quvchilar ishtirok etishi va o'qituvchi tabassumda bo'lishi juda zarur.

Shunchaki hamma narsani o'yinga aylantirish emas, aksincha, bu xodimlarning motivatsiyasi va hatti-harakatlarini bevosita boshqarish va ularni real dunyodagi muayyan faoliyat bilan asta-sekin tanishtirish orqali tashkiliy strategiyalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan puxta ishlab chiqilgan o'yin modeli. Interaktiv nazariyasi shaxslarning ularga taqdim etilgan vazifalarni hal qilishda ishtirok etish usullarini va kelajakdagi faoliyatga qiziqishni izchil saqlab turishni qo'llab-quvvatlaydi. Interaktiv yondashuv tashkilotlarga tashqi omillar (ichki motivatsiya) orqali xodimlarning motivatsiyasini oshirish mexanizmlaridan foydalanishga imkon beradi.

Chet tillarini muvaffaqiyatli o'rgatish va talabning madaniy kompetentsiyasini shakllantirish uchun o'qituvchi ham kasbiy bilimga ega bo'lishi kerak, ya'ni til tizimini, o'qitish metodikasini puxta egallashi, o'rganilayotgan til mamlakatlari madaniyatini, uning tarixini va hozirgi zamonni bilishi kerakligi, muloqot san'atiga ega bo'lishi, ochiq va do'stona talim muhitini yaratishi lozimligi aytib o'tilgan. Shu maqsadda bizning tadqiqotimiz yosh o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasining bir qismi sifatida madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirishga, yosh o'quvchilarning madaniyatlararo kompetentsiyasini rivojlantirish uchun dialogik matnlarni tanlash va loyihalashga qaratilgan. Biz yosh o'quvchilarning madaniyatlararo kompetentsiyasini shakllantirishga hissa qo'shishni xohlaymiz.

Boshqa madaniyatlarni dialogik matnlar orqali o'rgatishda, ingliz tili o'qituvchisi o'quvchilarning madaniyatlararo kompetentsiyalarini samarali oshirishda yordam berishi mumkinligiga ishonamiz. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlasha olishi barchaga ma'lum. Jahonda globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag'batlantirilishi "lingvistik kapital"ga, ya'ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislariga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Ko'pchilik tadqiqotchilar ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani mamlakatshunoslik va madaniyatshunoslik fanlariga bog'liq holda talqin etadilar. Lingvomadaniyatshunoslik fanining yuzaga kelishi ham bu qarashlarni yuzaga kelishini tasdiqlaydi. N.A. Salanovich quyidagicha takidlaydi, tilni o'rganishni mamlakatshunoslik bilan birga olib borish talabalardagi o'qishga nisbatan nihoyatda kuchli qiziqishni uyg'otadi hamda muloqot jarayonida zamonaviy o'qitishdagi til, xalq madaniyati, mamlakatshunoslik tarixi, an'analarga oid to'rt masalani hal etish imkonini yaratadi.

Zamonaviy o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, interaktiv va innovatsion yondashuvlar talab etilmoqda. Interaktiv texnologiyalar o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol metod iborasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib, u talabalarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning turlari ko'p. Hozirda keng qo'llanilayotgan "aqliy hujum" (brainstorming), ishbilarmonlik o'yinlari, pinbord, klaster, sinkveyn, kubik texnologiya, rolli o'yinlar kabi interfaol metodning ayrim ko'rinishlari talim jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol usullar qo'llanilganda talabalarning faolligi ortadi, o'quv materialiga, o'rganilayotgan chet tiliga nisbatan qiziqishlari kuchayadi. Nutqiy faoliyat davomida tez fikrlash, tez qaror qabul qilish, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bu esa o'quv materialini o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar (3-6 yosh) talim jarayonida o'ziga xos kognitiv rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib,

bu yoshdagi bolalarning aqliy faoliyati, e'tibor, xotira va til o'rganish qobiliyatlari ularga yangi tillarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilini maktabgacha yoshda o'rgatish jarayonida bolalarning kognitiv rivojlanish darajasini inobatga olish talim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari va ularni ingliz tilini o'rgatishda qanday qo'llash mumkinligi muhokama qilinadi. **Kognitiv rivojlanish** — bu bolaning o'rganish, fikrlash, eslash, masalalarni hal qilish kabi aqliy jarayonlari shakllanishi va rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar yuqori darajada sezgirlik va o'rganish qobiliyatiga ega bo'lib, ular tilni tabiiy va oson o'zlashtiradilar.

Bu davrda bolalarning kognitiv rivojlanishi asosan quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Sensor-motor faoliyatning rivojlanishi: Bolalar o'z atrofidagi olamni asosan sezgi va harakat orqali tushunadilar.

Til va nutq rivojlanishi: So'z boyligi tez kengayadi, yangi so'zlar va iboralarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladilar. **E'tibor va xotiraning rivojlanishi:** E'tibor uzunligi qisqa, lekin qisqa muddatli xotira yaxshi rivojlangan. **O'yin orqali o'rganish:** Bolalar o'yinlar yordamida o'z bilimlarini kengaytiradi, yangi til ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Tasavvur va ijodkorlikning rivojlanishi: Tasavvurga asoslangan faoliyat til o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ingliz tilini o'rgatishda kognitiv rivojlanish xususiyatlarini qo'llash. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tiliga o'rgatishda kognitiv rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish samarali talim jarayonini tashkil etishda muhimdir. Quyida asosiy yondashuvlar keltiriladi: Multisensorli o'quv metodlarini qo'llash: bolalar ko'rish, eshitish, tegish, harakat qilish orqali o'rganishni yaxshi qabul qiladilar. Shuning uchun ingliz tilidagi so'zlar va iboralarni o'rgatishda rasm, qo'l harakatlari, musiqa, o'yin va boshqa usullarni qo'llash tavsiya etiladi. O'yin orqali talim berish: Bolalar o'yin orqali ko'proq motivatsiya bilan til o'rganadilar. Ingliz tilidagi oddiy o'yinlar, masalan, ranglarni aniqlash, hayvonlar nomini o'rganish, rolli o'yinlar til ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. **Qisqa va takrorlanuvchi mashg'ulotlar:** Bolalarning e'tibori qisqa bo'lgani sababli, darslar qisqa muddatda bo'lishi va asosiy ma'lumotlar tez-tez takrorlanishi lozim. Nutq faoliyatini rag'batlantirish: Bolalarning nutq faoliyatini rivojlantirish uchun savollar berish, hikoyalar aytish, qo'shiq kuylash va dialoglar tashkil qilish samarali.

Individual yondashuv: Har bir bolaning kognitiv rivojlanish darajasi farq qilgani uchun, talim metodikasi shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarni inobatga olgan holda tuzilishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari ingliz tilini o'rgatish jarayonida samarali qo'llanilishi talim sifatini oshirishga yordam beradi. Multisensorli metodlar, o'yinlarga asoslangan faoliyat, qisqa va takroriy mashg'ulotlar, shuningdek, nutq faoliyatini rag'batlantirish orqali bolalar tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradilar. Kelajakda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tilini o'rgatishda kognitiv rivojlanishga mos yangi metod va vositalar yaratish muhim vazifa bo'lib qoladi.

References

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. Mahkamova G. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Irisqulov M. Til ko'nikmalarini baholash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Yusupova L. Zamonaviy ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.

5. Song, Li. (2009). Teaching English as intercultural Education Challenges of Intercultural Communication”. Intercultural Communication Research. Vol.1., 268p